

PALEOLIT DAVRIDA TAFAKKURNING “AMALIY-VAZIYATLI” BOSQICHDAN “RITUAL” BOSQICHGA O'TISH MUOMMOSI (TESHIKTOSH YODGORLIGI MISOLIDA)

Yuzhu Zhang^a | Shodmonov Anvar Akramovich^b

Annotatsiya

Mazkur maqolada paleolit davri ibtidoiy tafakkurining ikki asosiy bosqichi ko'rib chiqiladi. Birinchisi faqatgina yashash ehtiyoji bilan chegaralangan “amaliy-vaziyatli” tafakkur hamda ikkinchisi ramziy-diniy manoga ega bo'lgan “ritual” tafakkur. Maqola markazida geografik jihatdan O'zbekistonning Surxondaryo viloyati Boysun tog'lari (Baysuntov)dagi Teshiktosh g'orida 1938-1939 yillarda A.P. Okladnikov tomonidan ochilgan neandertal bolakay dafni turadi. Maqolada ushbu topilmaning ilk “ritual dafn” sifatidagi talqini, unga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlar (R. Gargett, P. Mellars) hamda so'nggi genetik va texnologik qayta tadqiqotlar (J. Krause va boshq., 2007; Y. Nishiaki, O. Aripdjanov, 2021) natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: paleolit, Teshiktosh, neandertal, Muste madaniyati, amaliy-vaziyatli tafakkur, ritual dafn, simbolik xulq-atvor, Boysuntov

a Shaanxi Provincial Key Laboratory of, Earth Surface System and Environmental, Carrying Capacity, College of Urban and, Environmental Sciences, Northwest University, Xi'an, 710127, China

b Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti

Аннотация

В статье рассматриваются два основных этапа первобытного мышления эпохи палеолита: “практико-ситуативное” мышление, ограниченное насущной потребностью в выживании, и “ритуальное” мышление, обладающее символично-религиозным значением. Особое внимание уделено захоронению ребенка-неандертальца, обнаруженному А. П. Окладниковым в 1938–1939 гг. в пещере Тешикташ (Байсунтауские горы, Сурхандарьинская область, Узбекистан). Анализируются трактовка этой находки как раннего “ритуального погребения”, критические взгляды на данную теорию (Р. Гаргетт, П. Мелларс), а также результаты недавних генетических и технологических исследований (Й. Краузе и др., 2007; Ю. Нишиаки, О. Арипджанов, 2021).

Ключевые слова: палеолит, Тешикташ, неандерталец, мустьерская культура, практико-ситуативное мышление, ритуальное погребение, символическое поведение, Байсунтау

Abstract

This article examines two primary stages of primitive thought during the Paleolithic era: “practical-situational” thinking, limited to the immediate need for survival, and “ritual” thinking, which possesses symbolic and religious significance. The article focuses on the Neanderthal child

burial discovered by A.P. Okladnikov in 1938–1939 at the Teshiktash cave in the Baysuntov (Boysun) Mountains of the Surkhandarya region, Uzbekistan. It analyzes the interpretation of this find as an early “ritual burial” the critical views expressed regarding this classification (R. Gargett, P. Mellars), and the results of recent genetic and technological re-examinations (J. Krause et al., 2007; Y. Nishiaki, O. Aripdjanov, 2021).

Keywords: Paleolithic, Teshiktash, Neanderthal, Mousterian culture, practical-situational thinking, ritual burial, symbolic behavior, Baysuntov

Kirish. Paleolit davri arxeologiyasida yodgorliklarni faqat texnologik jarayon bilan emas, balki ibtidoiy odam ongi va tafakkurining rivojlanish bosqichlari nuqtai nazaridan ham alohida o'rganilishi mumkin va bu hozirgi ilm fan uchun juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu yondashuvda odatda ikki asosiy bosqich ajratiladi: bevosita, aniq vaziyat va yashash ehtiyoji bilan chegaralangan “amaliy-vaziyatli” tafakkur hamda, o'lim, borliq va tabiat kuchlari haqidagi mavhum-ramziy tasavvurlarni o'z ichiga olgan “ritual” (marosimiy-diniy fikrlash) tafakkur.

Ushbu ikki bosqich o'rtasidagi chegara arxeologik jihatdan qanday aniqlanishi borasida nuqta si-

fatida eng ko'p muhokama qilinadigan dalil dafn marosimining paydo bo'lishidir. Aynan shu jarayonda O'zbekistondagi Teshiktosh yodgorligi jahon ilmiy adabiyotida markaziy o'rin egallaydi. (Movius H.L. 1953. -P. 11–71)

Amaliy-vaziyatli tafakkurning vujudga kelishi quyi paleolit davri (Selung'ur, Obirahmat g'ori, Ko'l-buloq manzilgohi va boshqa yodgorlik materiallari) uchun inson faoliyatining to'liq amaliy-utilitar xarakterda bo'lishi xosdir: tosh qurollar faqat ov, terish va oziq-ovqatni qayta ishlash uchun yasalgan, ularda mavhum yoki ramziy mazmun izlari kuzatilmaydi. Bu davr materiallarida dafn marosimi, san'at namunalar yoki boshqa simvolik xulq-atvor belgilari qayd etilmagan.

Aynan o'rta paleolit (Muste) davriga kelib, birinchi marta odam qoldiqlarining maxsus tarzda joylashtirilgan holda topilishi qayd etila boshlaydi. Biroq bu topilmalarni haqiqatan ham "qasddan dafn qilingan" va "ramziy-ritual" xarakterga ega deb hisoblash mumkinmi? Bu masala hozirgacha ilmiy bahs mavzusi bo'lib qolmoqda. P.G. Cheys va H.L. Dibblning maxsus tadqiqotiga ko'ra, o'rta paleolit davri materiallari insonning oldindan ko'ra bilish, g'amxo'rlik va hatto estetik tuyg'u kabi "zamonaviy" xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi, biroq mavjud dalillar o'rta-yuqori paleolit chegarasigacha aniq ramziy tafakkur yoki xulq-atvor mavjudligini isbotlay olmaydi. (Chase P.G., 1987. - P. 263-296)

Y.A. Smirnovning dunyo miqyosidagi o'rta paleolit dafnlarini umumlashtirgan tadqiqotida ham shunga o'xshash xulosaga kelinadi: dafn marosimining o'zi mavjudligi bilan uning ortida turgan "diniy-ritual" mazmuni-ikki alohida masaladir. (Smirnov Y.A. -1989. -P. 199-233)

1938-1939 yillarda A.P. Okladnikov boshchiligidagi ekspeditsiya O'zbekiston, Surxondaryo viloyati, Boysun tumani yaqinidagi Boysuntov tog'larida joylashgan Teshiktosh g'orida qazishma ishlarini olib bordi. Natijada besh madaniy qatlamdan iborat Muste davri manzilgohi hamda 8-9 yoshli neandertal bolaning qoldiqlari (bosh chanoq va ba'zi suyaklar) topildi. (Movius H.L. Op. cit. - P. 11–71)

Okladnikovning o'z tavsifiga ko'ra, bola bosh chanoq'i atrofida, aylana shaklida, uchli tomonlari markazga qaratilgan holda juft-juft qilib qadalgan olti juftgacha tog' arxari (Capra sibirica) shoxlari joylashgan bo'lib, ulardan biri ayniqsa yirik va keksa hayvonga tegishli bo'lgan. Okladnikov shu asosda bu topilmani qasddan amalga oshirilgan, muayyan reja asosidagi ritual dafn sifatida talqin qildi. (Okladnikov A.P. 1949)

Teshiktosh dafnining "ritual" xarakteri barcha tadqiqotchilar tomonidan bir xilda qabul qilinmagan. R.H. Gargett o'zining maxsus tadqiqotida Teshiktosh, La-Ferrasi, Le-Mustye va Shanidar kabi bir qator mashhur o'rta paleolit dafnlarini geoarxeologik, sedimentologik va tafonomik jihatdan qayta ko'rib chiqib, nashr etilgan kuzatishlar va qasddan dafn qilingan degan xulosa o'rtasida mantiqiy nomuvofikliklar mavjudligini ko'rsatdi. (Gargett R.H. 1989. -P. 157-190)

Xususan, Teshiktosh materialida topilgan 761 dona tog' echkisi suyagining ko'pligi va qazishma haqidagi nashr etilgan ma'lumotlarning yetarli emasligi tufayli, P. Mellars shoxlarning atayin joylashtirilganiga shubha bilan qaraydi va ularning tabiiy to'planish natijasi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. (Mellars P. 1996)

Ya'ni Teshiktosh borasida ikki qarama-qarshi pozitsiya mavjud: Okladnikovning asl "ritual dafn" talqini va Gargett hamda Mellars kabi tadqiqotchilarning "tabiiy jarayon" gipotezasi. Bu bahs amaliy-vaziyatidan ritualga o'tishni arxeologik dalillar asosida isbotlashning naqadar murakkabligini ko'rsatuvchi yorqin misoldir.

Genetik va zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki 2007 yilda J. Krause boshchiligidagi xalqaro tadqiqotchilar guruhi Teshiktosh bolakay suyagining mitoxondrial DNK (mtDNK)sini tahlil qilib, uning neandertal populyatsiyasiga tegishli ekanligini tasdiqladi hamda neandertallarning geografik tarqalish chegarasini sharqqa, taxminan 2000 km ga kengaytirdi (Krause J., 2007. P. 902-904)

2021 yilda Y. Nishiaki va O. Aripdjanov Toshkentdagi O'zbekiston Davlat tarix muzeyida saqlanayotgan Teshiktosh tosh qurollari kolleksiyasini qayta tahlil qilib, bu yerda Levallua texnologiyasining alohida varianti qo'llanilganligini aniqladilar. Bu tadqiqot Teshiktosh sanoatini g'arbiy Markaziy Osiyoning muhim neandertal madaniy ananasi sifatida belgiladi. (Nishiaki Y., 2021. P. 22-37)

Jahon miqyosida qiyoslash shuni ko'rsatadiki, R.Gargettning tadqiqoti Teshiktoshni Fransiyadagi La-Ferrasi va Le-Mustye, shuningdek Iroqdagi Shanidar kabi Yevropa va Yaqin Sharqning eng mashhur o'rta paleolit dafnlari bilan bir qatorda ko'rib chiqadi. Bu esa Teshiktoshni faqat mahalliy emas, balki butun neandertal dunyosi miqyosidagi umumiy muammoning bir qismi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. (Gargett R.H. – 1989. P. 157–190).

Shunday qilib, "amaliy-vaziyatli" tafakkurdan "ritual" tafakkurga o'tish bitta yodgorlik yoki bitta min-taqaga xos emas, balki butun o'rta paleolit davri neandertal populyatsiyalari uchun umumiy, hali to'liq yechilmagan ilmiy muammodir.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki Teshiktosh yodgorligi misolida ko'rib chiqilgan material shuni ko'rsatadiki, paleolit davrida "amaliy-vaziyatli" tafakkurdan "ritual" tafakkurga o'tishni arxeologik dalillar orqali isbotlash bir qatlamli, oddiy jarayon emas. Bitta topilma (Okladnikovning dastlabki ritual talqini) keyinchalik qat'iy ilmiy tanqiddan (Gargett, Mellars) o'tkazilishi, so'ngra genetik (Krause va boshq., 2007) va texnologik (Nishiaki, Aripdjanov, 2021) qayta tadqiqotlar bilan yangi qirralarda yoritilishi bu borada yakuniy xulosaning hali ham ochiq masala bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Aynan shu ochiqlik va bahslilik mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Movius H.L. Mousterian Cave of Teshik-Tash, Southeastern Uzbekistan, Central Asia // Bulletin of the American School

of Prehistoric Research. - 1953. - № 17. -P. 11-71.

- [2] Chase P.G., Dibble H.L. Middle Paleolithic Symbolism: A Review of Current Evidence and Interpretations // Journal of Anthropological Archaeology. -1987. Vol. 6. - P. 263–296.
- [3] Smirnov Y.A. Intentional Human Burial: Middle Paleolithic (Last Glaciation) Beginnings // Journal of World Prehistory. 1989. Vol. 3, № 2. -P. 199-233.
- [4] Okladnikov A.P. Тешик-Таш. Палеолитический человек / под ред. М.А. Громяцкого. - М.: Изд-во МГУ, 1949.
- [5] Gargett R.H. Grave Shortcomings: The Evidence for Neandertal Burial // Current Anthropology. - 1989. Vol. 30, № 2. P. 157-190.
- [6] Mellars P. The Neanderthal Legacy: An Archaeological Perspective from Western Europe. - Princeton: Princeton University Press, 1996.
- [7] Krause J., Orlando L., Serre D., Viola B., Prüfer K., Richards M.P., Hublin J.-J., Hänni C., Derevianko A.P., Pääbo S. Neanderthals in Central Asia and Siberia // Nature. -2007. Vol. 449, № 7164. - P. 902–904.
- [8] Nishiaki Y., Aripdjanov O. A New Look at the Middle Paleolithic Lithic Industry of the Teshik-Tash Cave, Uzbekistan, West Central Asia // Quaternary International. 2021. Vol. 596. -P. 22-37.